

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Djurayeva Dildora Buriyevna

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi MBA Banking magistr
tinglovchisi*

“Kredit portfeli” tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko‘rsatadigan omillardandir. Kredit portfeli to‘g‘ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog‘liq xatarlar, sudalar, muddati o‘tgan yoki uzaytirilgan kreditlar buyicha xisob-kitob operatsiyalari, sudalar buyicha zararlarni qoplash zaxira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi. Demak, kredit portfeli - bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig‘indisidir. Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o‘z ifodasini topadi.

Huerta de Soto fikricha, birinchi navbatda, tijorat banklari tomonidan kengaytirilgan kreditlar uchun foiz stavkalari kamaytirish daromad keltiruvchi investitsiya loyihalarini kirib foydasiz investitsiya loyihalarini o‘zgartiradi. Ikkinchidan, ixtiyoriy jamg‘arma orqali banklar tomonidan ta‘minlanmagan kreditlar hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, albatta, investitsiya loyihalarining bajarilmasligiga va kreditlarning qaytarilmasligiga olib keladi

Bunda bank uzining kaysi tarmokka kuproq etibor berishiga karab, u eki bu kredit ulushi kredit portfelida kuprok buladi. Bu uning kredit siesatidan kelib chiqadi. Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy va bank daromadini katta qismi ham ayni shu kredit operatsiyalari orqali keladi. SHu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bank yaxshi kredit portfelini shakllantirish niyatida ekan, kreditlash jaraenini tug‘ri tashkil qilishi zarur buladi.

Biz yuqorida turli ko‘rinishdagi kreditlarni ko‘rdik, biroq konkret banklarning kredit portfelining tarkibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bank kredit portfelining tarkibini aniqlovchi muhim omillardan biri bu ayni bank xizmat kursatadigan bozor sektorining spetsifikasidir.

Har bir bank o‘z bozor segmenti mijozlarining qarz mablag‘lariga bulgan ehtiejini hisobga olishi kerak. Masalan, bank shahar chekkasidagi uylar va kichik do‘konlarga ega tumanda joylashgan balsa, asosiy uy binolari garovi ostida, ipoteka krediti, avtomobil, uy jixozlari, umuman uy xujaligini yuritish uchun xarajatlarni qoplashga kredit beradi, aksincha katta shaharda ofislar, katta univermaglar, sanoat korxonolari orasidagi banklar, odatda uz kreditlarini asosan tijorat firmalariga tovar materiallar zahiralarni to‘ldirishga, jihozlar sotib olishga va ish haqiga yo‘naltiradilar. E'tibor bering, muammoli kreditlarning sabablaridan biri bu qarz oluvchilar kredit olish uchun murojaat qilishda qaror qabul qilishlari va ularning moliyaviy ahvolini har doim ham to'g'ri baholamasliklari. Natijada, bu

qarz oluvchilarni oylik to'lov va kredit foizlarini to'lashga qodir emasligiga olib keladi. To'lovlarni kechiktirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil-bu kredit olish uchun bankka soxta daromad sertifikatlarini taqdim etish. Yuqorida aytilganlarning barchasiga qo'shimcha ravishda, salbiy omil-bu bankning yangi mijozlari uchun kredit tarixining yo'qligi, buning natijasida bank kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishga tayanadigan hech narsaga ega emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, bank o'z mijozlari portfelini faol va passiv operatsiyalar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlaydigan tarzda shakllantirishi, shuningdek, uning likvidligi va rentabellik ko'rsatkichlarini uzluksiz faoliyat uchun zarur bo'lgan darajada ushlab turishi kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun bank barcha turdagi xatarlar darajasini muntazam ravishda tahlil qilishi, ularni boshqarishning barcha usullaridan foydalanishi va har bir aniq moment uchun ularning qiymatlarini hisoblashi kerak.

Bankning kredit portfelini boshqarishning muhim jihati uning sifatini baholash uchun ma'lum mezonlarni tanlashdir. Baholash bosqichida kreditlarning asosiy guruhlarini ular bilan bog'liq bo'lgan xavf foizlarini ko'rsatish orqali shakllanadi.

Muayyan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish paytida foydalaniladigan bank kreditlash portfelini boshqarishning turli xil usullari mavjud. Eng keng tarqalgan usullardan biri bu kredit portfelini diversifikatsiya qilishdir, chunki bu kreditni to'lamaslik xavfini himoya qilishning nisbatan arzon va oddiy usuli. Ushbu usulning mohiyati shundaki, kredit portfeli qarz oluvchilarning keng doirasiga taqsimlanadi. Bundan tashqari, qarz oluvchilar bir-biridan bir necha jihatdan farq qiladi: kapital miqdori, faoliyat shartlari va mulkchilik shakli bo'yicha.

Albatta, banklar kredit beraetganlarida o'zlarining xizmat ko'rsataetgan regionlarga to'liq bog'liq bulmaydilar. Kerakli kredit mablag'larini to'liq eki qisman ular boshqa banklardan olishlari mumkin. Bu adolat agar bank xizmat qilaetgan region iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelsa, zarar kurish riskini pasaytiradi.

Bank miqiyosi ham uning kredit portfeliga ta'sir etuvchi omillardan biri xisoblanadi, ayniksa, bir qarz oluvchiga beriladigan kreditning maksimal miqdorini belgilovchi kapitalning xajmi muhimdir. Katta banklar, odatda ulgurji kreditorlar hisoblanadilar, ular o'zlarining kreditlari asosiy mikdorini korporatsiyalar va boshka firmalarga beradilar. Kichikroq banklarning faoliyati esa fuqarolarga kichik sudalar, uy garovi ostida xususiy shaxslarga kreditlar, firma va rancho egalariga kichik kreditlar shaklidagi yakka holdagi kreditlarni berishga yo'naltirilganlar.

Bundan tashqari, kredit portfeli tarkibiga ko'ra kreditlashning turli kurinishlari sohasida menejerlarning tajriba va malakasi hamda uz kredit inspektorlariga ma'lum kurinishdagi kreditlarni bermasligi ko'rsatilgan bank kredit siesati ham ta'sir ko'rsatadi.

Kredit portfelining tarkibi ma'lum darajada bankning kutilaetgan daromadiga ham bog'liq. Chunki bank, odatda kutilaetgan daromadi maksimal bulgan sudalarni berishni ma'qul ko'radi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan №4947 “On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan” as of February 7, 2017 // Collection of legislative materials of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2017. – № 6 (766). – p.32.
2. Sinkey J. Financial management at the commercial bank and in the financial services industry. Translated from English. – M.: Alpina Publisher, 2017. – p. 529-275.
3. Uerto de Soto Hesus. Money, bank loan and economic cycles. Translated from English. –Chelyabinsk: Sotsium, 2008. – p. 666
4. Mazurina T.Yu. Banking investment lending: current condition, problems and developmentprospects// Money and credit. – Moscow, 2013. - №4. – p. 33.
5. Matovnikov M.Yu. Banking system of Russia and long-term resources //Money and credit. –Moscow, 2013. - №5. - p.19.
6. Moiseyev S.R. Monetary policy:theory and practice. Textbook. – M.: Moscow Finance andindustry academy, 2011. - p. 714-715.